

ISHLASH TASHIQLIGI VA KIRITILGANI

Tashkent ilmiy-tadqiqot va ta'lim instituti

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil 21.08.23

JORIY HUKM

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish*
magistratura mutaxassisligining malaka talablari**

Amaldorlar tomonidan tasdiqlanib, o'z ishida qo'llanilishi uchun
yuborilgan. Oliy ta'lim darajasi uchun talablar
magistratura mutaxassisligining malaka talablari
magistratura mutaxassisligining malaka talablari
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Toshkent-2023

ЎЗР ОУМТВ
Буйруқ № 367
21.08.2023 йил

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

t/r		bet
1.	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi	4
1.1	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1	<i>70812401–Gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egalashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.2	<i>70812401–Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish</i> mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	9
2.4	Kvalifikatsiya.....	9
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11
	Kelishuv dalolatnomasi.....	12

1. 70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.3. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70812401– *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* – “ Qishloq xo'jaligi” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarda ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tasarrufidagi tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, sug'orish tizim boshqarmalari, suv xo'jaligi va melioratsiya qurilishi, mulkchilik shaklidan qatt'i nazar turli xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarini boshqarish oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek ularni rivojlanish istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarda faoliyat yuritish;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- suv xo'jaligi va melioratsiya qurilishida qo'llanilayotgan qurilish va melioratsiya texnikalari ish jihozi konstruksiyalarini takomillashtirish tizimi;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, suv xo'jaligi tashkilotlari boshqaruvida, mudofaa, ichki ishlar va xavfsizlik organlarida boshqaruv jarayonlari;

- iqtisodiyot tarmoqlari, suv xo'jaligi ishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiyalar, korporatsiyalar, konserenlar, kompaniyalar, ishlab chiqarish birlashmalarida qo'llanilayotgan texnikalarga tizimli servis xizmatini tashkil qilish va boshqarish jarayonlari;

- gidromelioratsiya mashinalari konstruktiv loyihalarini tayyorlashda ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

- fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda gidromelioratsiya mashinalari ekspluatatsiya ko'rsatgichlarini tahlil qilish optimallashtirish jarayonlari.

1.2.3. 70812401 – Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- Ilmiy-tadqiqot faoliyat;
- Pedagogik faoliyat;
- Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;
- Konsalting xizmati faoliyati.
- *Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);*

• *Konsalting xizmati faoliyati va shukabilarni o'z ichiga oladi.*

Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 70812401 – Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari:

70812401 – Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan taqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil qilish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish;

- mehnat munosabatlariga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tadqiq qilinishini tashkil qilish;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish va ularni sharhlash;

- loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning zamonaviy texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalarni o'zlashtirish va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam rivojlantirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda konsalting xizmati faoliyatida:

-Ishlab chiqarishni tashkil etish ;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'limlar tashkiliy tuzilmasini

optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

-reja, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha mashina va mexanizmlardan foydalanishning samaradorligini oshirish oshirish va aniqlash;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash, shartnomalar tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, hisobotlarni tuzish tariblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha suv xo'jaligi qurilishi korxonalar va tashkilotlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan, mashina va mexanizmlardan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiq qilish.

2. 70812401 – Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

-xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati, undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi ;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

- ilmiy amaliy, tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilishi;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxon va ularning alohida bo'limlar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha suv xo'jaligi qurilishi korxon va tashkilotlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan, mashina va mexanizmlardan samarali foydalanishni hamda rejalashtirishni bilishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, ko'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'inashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot - pedagogik maxoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. 70812401 – *Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:*

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	960	32
Tanlov fanlar	540	18
Ilmiy faoliyat	2100	70

2.3.2. 70812401 – Hidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	960	32	
1.01	ITM5104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MLM5104	Muxandislik logistikasi va modellashtirish	120	4	1
1.03	ER5108	Eksperimentni rejalashtirish va natijalarga ishlov berish	240	8	1,2
1.04	GV5106	Gidromexanizatsiya vositalari	120	4	2
1.05	MLA5104	Mashinalarni loyihalash asoslari	240	8	2,3
1.06	RA6104	Resurstejamkorlik asoslari	120	4	3
2.00		Tanlov fanlar	540	18	
2.00		<i>Tanlov fanlar (5 fan)</i>	540	18	1,2,3
		Jami	1500	50	
		Ilmiy faoliyat	2100	70	1,2,3,4
		Jami	2100	70	
		HAMMASI	3600	120	

2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-mexanik, tadqiqotchi-pedagog

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning asosiy ta'lim dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, suv xo'jaligi, melioratsiya ishlari, mashina va jixozlar, yer qazish, tashish, tekislash mashinalari, ekskavator, konstruksiya, matematik kutilma, statistik ishlov berish, yeyilish, ishqalanish, resurs, servis xizmat ko'rsatish, diagnostika, qoplama, ta'mirlash, mexanik ishlov berish, payvandlash, moylash materiallari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.